

XORAZMDA 1935-1950 YILLARDA MATBUOT RIVOJLANISHIDA RADIONING ROLI

Bobojanova Gulhayo Abdirim qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17840789>

Annotatsiya: 1935-1950 yillar O'zbekiston, xususan Xorazm vohasi uchun chuqur siyosiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar davri bo'lgan. Bu davr Ikkinchi Jahon urushi yillari va urushdan keyingi qayta tiklanish davrini o'z ichiga oladi. Matbuot (gazeta va jurnallar) o'sha davrda asosiy mafkuraviy va axborot manbai bo'lgan bo'lsa-da, radio uning ta'sir doirasini sezilarli darajada kengaytirishda va ommaga yetkazishda muhim rol o'ynagan. Radio nafaqat axborot va targ'ibot vositasi, balki madaniy-ma'rifiy vazifani ham bajargan. Unda xalq dostonlari, qo'shiqlar, adabiy asarlardan parchalar, turli ko'rsatuvlar efirga uzatilgan. Bu esa aholining ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qilgan va Xorazmning boy madaniy merosini targ'ib qilishda matbuotga yordam bergan.

Kalit so'zlar: sotsialistik madaniyatni, «Inqilob quyoshi», «Hujum», Telefon pochta telegraf radio aloqa front.

РОЛЬ РАДИО В РАЗВИТИИ ПЕЧАТИ В ХОРЕЗМЕ В 1935-1950 ГОДАХ

Аннотация: 1935-1950 годы были периодом глубоких политических, социальных и культурных изменений для Узбекистана, в частности для Хорезмского оазиса. Этот период охватывает годы Второй мировой войны и послевоенного восстановления. Хотя печать (газеты и журналы) в тот период была основным идеологическим и информационным источником, радио сыграло важную роль в значительном расширении сферы ее влияния и донесении информации до масс. Радио было не только средством информации и пропаганды, но и выполняло культурно-просветительскую функцию. В эфире передавались народные дастаны, песни, отрывки из литературных произведений, различные передачи. Это способствовало обогащению духовного мира населения и помогало печати в продвижении богатого культурного наследия Хорезма.

Ключевые слова: социалистическая культура, «Солнце революции», «Наступление», телефон, почта, телеграф, радиосвязь, фронт.

THE ROLE OF RADIO IN THE DEVELOPMENT OF PRINT MEDIA IN KHOREZM FROM 1935-1950

Abstract: The period of 1935-1950 was a time of profound political, social, and cultural changes for Uzbekistan, especially for the Khorezm Oasis. This era encompassed the years of World War II and postwar reconstruction. While print media (newspapers and magazines) served as the primary ideological and informational source during that time, radio played a crucial role in significantly expanding its reach and disseminating information to the masses. Radio was not only a means of information and propaganda but also fulfilled a cultural and educational function. It broadcast folk dastans, songs, excerpts from literary works, and various other programs. This contributed to the enrichment of the population's spiritual world and assisted print media in promoting Khorezm's rich cultural heritage.

Keywords: socialist culture, "Sun of the Revolution", "Offensive", telephone, mail, telegraph, radio communication, front.

Radio XX asrda insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. U nafaqat axborot vositasi, balki ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy va madaniy tarbiyaning muhim vositasi sifatida jamiyat hayotiga chuqur kirib bordi. Xorazmda radiolashtirish jarayoni 1930-yillarning o'rtalarida, ya'ni mamlakatda ommaviy axborot vositalarini keng rivojlantirish siyosati doirasida boshlandi. 1936 yilda «Inqilob quyoshi» gazetasi sahifalarida radioning tashkil etilishi haqidagi ilk xabarlar chop etildi. Bu ma'lumotlar nafaqat texnik va tashkiliy ishlar haqida, balki jamiyatning yangi madaniy ehtiyojlari haqida ham muhim dalillar taqdim etadi.

1936 yil 3 yanvarda Urganch okrug partiya qo'mitasi qaroriga muvofiq, okrugda radio qo'mitasi tashkil etildi va uning smetasi 221 922 so'm etib belgilandi. («Inqilob quyoshi», 1936 yil 18 yanvar). Birinchi eshittirishlar 15 yanvardan boshlanib, dastlab ikki soat, keyinchalik to'rt soatgacha uzaytirildi. Radio orqali mahalliy teatr musiqashunoslari, xavaskor artistlar ishtirokida konsertlar efirga uzatilib, xalq orasida katta qiziqish uyg'otgan. Bu davrda radioning asosiy vazifasi aholiga siyosiy va madaniy axborotlarni yetkazish hamda kolxozchilar orasida sotsialistik madaniyatni targ'ib qilishdan iborat bo'lgan.

«Inqilob quyoshi» gazetasida 1936 yil fevral-mart oylarida chop etilgan maqolalarda kolxozlarda radio qurilmalarning ishlamayotganligi haqida tanqidiy chiqishlar berilgan. Masalan, «Hujum» kolxozi radiosi foydalanilmasdan qolgani, mas'ul shaxslarning loqaydligi aytiladi (Qutum Yaqubov, «Kolxoz radiosi qachon ishlaydi», 23 fevral 1936 yil). Bu misollardan ko'rinib turibdiki, texnik ta'minot va mas'uliyat muammolari radiolashtirish jarayonida muhim to'siq bo'lgan. Ammo aholining radio eshitishga bo'lgan qiziqishi yil sayin ortib borgan.

1938 yilga kelib, Xorazm viloyatida radiolashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. «Inqilob quyoshi» gazetasida radiolashtirishni kengaytirish, radio qo'mitalar ishini yaxshilash va yangi stansiyalar qurish zarurligi haqida bir qator maqolalar chop etilgan. 29 iyulda bo'lib o'tgan viloyat radio faollari kengashida radioning ahamiyati, texnik kamchiliklar va kadrlar yetishmasligi masalalari muhokama qilingan («Radio qo'mitasi mehnatkashlarga yaxshi xizmat qilsin», 3 iyul 1938 yil). Ikkinchi jahon urushi yillarida, radioning kundalik turmushdagi mavqei nihoyatda ortgan. Aholi urush janggo'hlariidagi ahvoldan radiokarnaylar orqali xabardor bo'lib turgan. Shu yillari viloyat radiosida bosh muharrir Ollabergan Bobojonov, muharrirlar Egam Rahim va Mariya Pilnova, adabiy xodim Karim Rahimov, diktator bo'lib Oybibi Xudoyberganova va Levchuk ishlashgan (Ж, 2017). Xorazm viloyatining uzoq tumanlariga pochta harakatlanishini bir me'yorda boshqarish uchun Nukusda joylashgan maxsus 239-aviaotryad bilan shartnoma tuzilib, Mang'it, Gurlan, Xiva va Hazoraspga pochta samalyot orqali yetkazilgan. Muassasa shartnomani tasdiqladi, lekin bu maqsad uchun mablag' ajratilmagani natijasida 400 ming rubl qarzdorlik yuzaga keldi. 1945 yil 20 fevraldan pochtani eltib berish to'xtatildi. Negaki qarzdorlik 55 ming rublgacha o'sgani qaydetilgan edi (коллектив, 1941). Radio faoliyatida ham urush yillarida kamchiliklar ko'zga tashlanib turgan. 1941 yilda Urganch shaharidagi xotin qizlar klubida radio havaskorlarining kengashi bo'lib o'tgan. Kengashda muzokaraga chiqib gapirgan Davlatov, Qutlimurodov va Xudoyberganov so'zlaridan radio eshittirish va tinglovchilarning radio tochkalari o'rnatib berish yuzasidan bo'lgan talablariga javob berish qoniqarsiz ahvolda ekanligi ma'lum bo'lgan. Radio komiteti boshlig'i Xolmatov so'nggi kunlarda mahalliy axborotlarni juda kam berayotganligi aytib o'tilgan. Radio stansiya bir vaqtda birdaniga uchta to'lqindan olib eshittirgan. Natijada axborot nima to'g'risida ketayotganini bilib bo'lmayotganligi xalq e'tiroziga sabab bo'lgan. Kengash radio eshittirishni yaxshilash, uni mehnatkashlarning o'sib borayotgan talablari darajasida ishlaydigan holga

keltirish va radio tochkalari o'rnatish ishini ko'ngildagidek uyushtirish, butun radio tochkalarini muntazam ishlab turishini ta'minlash tadbirlarini belgilaydigan qaror qabul qilgan. (Коллектив, 1942) Urganch tuman Kirov qishloq sovetidagi Partiya XVII sezdi nomli kolxoz shaharchasida 35 ta radio tochkasi o'rnatilgan. Radio točka birinchi navbatda kolxozning staxanovchi va o'n beshmingchi terimchilaridan R.Safoeva, Eshchanova, Raxmatullaeva va Otaevalarning uylariga o'rnatib berilgan Xabar va e'lonlarni aholiga yetkazuvchi radioga aholining qiziqishi juda katta bo'lgan. Xalq radioni havas bilan tinglagan, undan ruhiy ozuqa olishgan. Urush yillarida radio eshittirish ishini keng yo'lga qo'yish masalasiga alohida e'tibor berib kelingan. Hattoki, tumanlarning o'zida mahalliy eshittirishlar tashkil qilingan. Hazoraspda ham bundan bir necha oy burun mahalliy radio eshittirish redaksiyasi tashkil qilingan[9]. Bir so'z bilan aytganda urush yillarida barcha aloqa va pochta xodimlari Respublikamizning butun aholisi kabi g'alaba yo'lida fidokorona mehnat qildilar. Pochta aloqasi kabi radio ham odamlar hayotida katta rol o'ynadi.

1939 yil 20 yanvarda O'zbekiston XKS va partiya markaziy qo'mitasining qarori bilan Qo'shko'pir, Yangiariq, Xonqa va Mang'itda radio stansiyalar qurish rejalashtirilgan («Inqilob quyoshi», 1939 yil 20 yanvar).

Gazeta iqtiboslaridan namunala e'tibor qaratsak buni yanada aniqroq ko'rishimiz mumkin: «Urganch Okrug partiya qo'mitasining 1936-yil 3-yanvardagi qaroriga muvofiq, okrugda radio qo'mitasi tuzilib, smetasi 221 922 so'mdan iborat qilib tasdiqlandi. Birinchi eshitdirish 15-yanvardan boshlanib, har kuni 2 soat davom qiladi...» deb yozadi «*Inqilob quyoshi*» gazetasi, 1936 yil, 18-yanvardagi sonida (-ilova).

«Mang'itda radio stansiya qurish ishlari sustlashib qolgan. Kolxozchilarning radioga bo'lgan talabi kundan-kunga o'smoqda...» deb axborot beradi «*Inqilob quyoshi*» gazetasi 1936-yil 3-noyabrdagi sonida (-ilova).

«Xiva shahrida radio stansiyasi 1940-yildan buyon ta'mirlanmagan, binolari yomg'ir suvidan vayron bo'lgan. Radio eshittirishning sifatli bo'lishi uchun mahalliy tashkilotlar e'tibor qaratishi lozim» deb yozadi «*Xorazm haqiqati*» gazetasi 1946-yil, 23-noyabrdagi sonida. Yoki shunga o'xshash ma'lumot «So'nggi yillarda mamlakatimizda radio eshittirish stansiyatlari soni yuzdan oshib ketdi. Radio xalqning madaniy va siyosiy tarbiyasida kuchli qurol bo'lib qoldi»-deb yoziladi «*Xorazm haqiqati*» gazetasining 1948-yil 7-maydagi sonida.

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki 1936–1961 yillarda Xorazmda radio tizimi shakllanib, uning texnik, tashkiliy va ijtimoiy asoslari mustahkamlandi. Radio xalq ongini uyg'otish, madaniyatni ommalashtirish va siyosiy faollikni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Arxiv gazetalar ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, radio nafaqat texnik ixtiro, balki ma'naviy hayotning markaziy elementiga aylangan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Хива алоқа тарихи музейи маълумотлари. 2017 йил
2. Хоразм вилояти Давлат архиви, 251-фонд, 1-рўйхат, 43-иш, 2-варақ.
3. Хоразм ҳақиқати 1941-йил 3-март. Н;52 (3748). Газетада 3-бет.
4. Хоразм ҳақиқати “1942-йил 13-сентябр. Н;212 (4220).
5. Хоразм ҳақиқати “1944-йил 27-сентябр. Чоршанба. Н;190 (4760).
6. Юсупов И.С. “Ўзбекистонда алоқа тизимининг тараққиёти тарихи” (Хоразм вилояти мисолида). Бухоро. “Дурдона” нашриёти. 2022 йил.

7. Қаяумов Ҳ. Матбуот ва жамият: илмий таҳлил. — Т.: Маърифат, 2020. — 198 б.
8. Қурбонов Ф. (2022). “Оммавий ахборот воситалари фаолиятида очиқлик ва жамоатчилик назоратининг ролини ошириш йўналишлари”. Ахборот жамияти илмий журнали, №3, 45–52-б.
9. Қурбонов, А. (2016). Матбуот назарияси ва амалиёти. Тошкент: Университет нашриёти.
10. Қурбонов, М. (1986). Хоразмда совет матбуотининг шаклланиши. Урганч: Хоразм нашриёти